

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM**  
**VAZIRLIGI**

**60911100 – “XALQ TABOBATI”**  
**(Xalq tabobati mutaxassis ( shifokor)) ta‘lim yo‘nalishi**  
**MALAKA TAVSIFNOMASI**

**Toshkent – 2021**

## ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent tibbiyot akademiyasi

## TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida ma'qullangan.

2021 yil «16» avgust dagi 4 - sonli bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil «31» avgust dagi 217 - sonli buyrug'ining 3 ilovasi bilan tasdiqlangan.

## JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

## MUNDARIJA

1.	<b>Umumiy qoidalar</b> .....	4
1.1	Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy xujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan.....	4
1.2	<b>60911100 – XALQ TABOBATI</b> mutaxassisligi bo'yicha malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy xujjati bo'lib, quyidagilarni belgilaydi	5
1.3	Ushbu malakaviy tavsifnomasi mo'ljallangan.....	6
1.4	Xalq tabobati mutaxassisi malakaviy tavsifnomasi ishlatiladi.....	6
1.5	Xalq tabobati mutaxassisining kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari.....	7
2.0	<b>Xalq tabobati mutaxassisiga malaka tavsifnomasi</b> .....	7
2.1	Xalq tabobati mutaxassisi bilimlari.....	7
2.2	Xalq tabobati mutaxassisi ko'nikmalari.....	8
2.3	Asosiy nazariy bilimlar Xalq tabobati mutaxassisi bilishi kerak.....	9
3	Axoli salomatligini saklash va kasalliklarning oldini olishda (profilaktikasida) <b>xalq tabobati mutaxassisining o'rni</b> .....	9
3.1	Xalq tabobati mutaxassisining majburiyatlari.....	8
4.	<b>Sog'liqni saqlash birlamchi tizimida ko'rsatiladigan tibbiy yordam xajmi</b> .....	9
4.1	Ko'rsatiladigan ( <i>tibbiy yordam turi</i> ) darajasiga ko'ra xalq tabobati mutaxassisi tomonidan bajariladigan faoliyat.....	9
4.2	Davolash profilaktika, diagnostika va x.k. tadbirlarini o'tkazilishi ko'zda tutilgan kasalliklar ro'yxati <b>Xalq tabobati mutaxassisi ega bo'lishi shart amaliy ko'nikmalar</b> .....	10
5.	Xalq tabobati mutaxassisi quydagi amaliy kunikmalarga ega bo'lishi kerak..... <b>Xalq tabobati mutaxassisining munosabatlariga quyiladigan talablar.</b>	11
6.	Bemorlarga nisbatan xalq tabobati mutaxassisi tomonidan ko'rsatiladigan munosabat.....	12
7.	<b>Uzluksiz kasbiy ta'lim va xalq tabobati mutaxassisining attestatsiyasi</b> .....	12

## 1. UMUMIY QOIDALAR

Aholi salomatligini ta'minlash, tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish, turli xil, ayniqsa surunkali kasalliklar profilaktikasida va ularni davolashda sifat, xavfsizlik va samaradorlik jihatidan amalda sinalgan xalq tabobati muhim o'rin tutadi. Salomatlik, osoyishtalik, insonlarga qaratilgan tibbiy-sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlash, tibbiy-sanitariya xizmatlari sifatini oshirish, sog'liqni saqlash xizmatlari bilan yalpi qamrab olishni kengaytirish hamda iste'molchilarga o'z sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish borasida ongli tanlov uchun imkoniyatlar yaratishda xalq tabobatining salohiyatidan foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimida yuqori sifatli xalq tabobati mutaxassisni tayirlash va zamonaviy tibbiyot usullarni yordamida aholini davolash va kasalliklarni oldini olish talablar ko'yilgan.

Ushbu xalq tabobati mutaxassisining malakaviy tavsifnomasi zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlanishida asosiy hujjat hisoblanadi.

Xalq taboboti mutaxassisining tavsifnomasi kadrlar tayyorlashga unifitsirlangan va tizimli yondashuv yaratib beradi.

**1.1.Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bulib, kuyidagilar asosida tuzilgan:**

**Bu malaka tavsifi Davlat me'yoriy hujjati quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2017 yildagi PQ-2956-sonli "Tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "SHoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4985-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentyabrdagi 718-sonli "Tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash, tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish uchun birlamchi tibbiy-sanitariya yordamida ko'rilayotgan profilaktika choralarining samaradorligi uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5590-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi "O'zbekiston Respublikasining birlamchi sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2857-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy va farmatsevtik ta’lim va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 sentyabrdagi "Tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 769-sonli qarori.

2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash buyicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-3775-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyuldagi "Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6035-sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi "Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari. to‘g‘risidagi" PQ-4063 – sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi PQ-4666-sonli "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoloyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6110-sonli Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi "**Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida**"gi 311-sonli buyrug‘i.

**1.2. 60911100 – XALQ TABOBATI ta’lim yunalishi (bakalavriatura mutaxassisligi) buyicha** malaka tavsifnoma davlat normativ hujjati hisoblanadi va quyidagilarni belgilaydi:

- xalq tabobati mutaxassis-shifokori faoliyatining asosiy talablari va faoliyat yuritish shartlari, professional yo‘naltirilishi;
- xalq tabobati mutaxassis-shifokori bo‘lgan malaka talablarini;
- xalq tabobati mutaxassisining attestatsiyadan o‘tkazish talablarini;
- xalq tabobati mutaxassisining oliy tibbiy oliygoxlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv dasturlari asoslari;
- O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimida xalq tabobati mutaxassisini tayyorlanish sifatini oshishi va ushbu jarayonda mas’uliyat ortib borishiga zamin yaratadi;
- xalq tabobati mutaxassisining amaliy faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqishni.

### **1.3. Ushbu malaka tavsifnomasi mo'ljallangan:**

- tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi muassasalari (qishloq vrachlik punkti (QVP), qishloq oilaviy poliklinika (QOP), ko'p tarmoqli markaziy poliklinika (KTMP), tez tibbiy yordam stansiyalari);
- tibbiy oliygoxlar va ularning filiallari;
- sog'liqni saqlashni boshqarmalari;
- ushbu mutaxassis mehnatidan foydalanuvchi vazirliklar, boshqarmalar, muassasalar va tashkilotlar;
- sog'liqni saqlash mahalliy boshqarmalari;
- tibbiy-profilaktika muassasalari (ko'p tarmoqli viloyat tibbiyot markazlari, kasalxonalar, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va filiallari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiyot markazi);
- xususiy tibbiyot tashkilotlari
- tibbiy assotsiatsiyalar.

### **1.4. Xalq tabobati malaka tavsifnomasi ishlatiladi:**

- ushbu yo'nalishdagi mutaxassislarga bo'lgan extiyojni oldindan ko'ra bilish, diplom oldi, diplomdan keyingi ta'lim va adaptatsiya o'quv reja va dasturlari ishlab chiqilishida;
- tayyorlov, qayta tayyorlashni takomillashtirishda, malaka talablarini oshirishda, professional faoliyat yo'naltirish va tahlil etishda,
- bitiruvchilarini yakuniy attestatsiya o'tkazishda Davlat imtihon hay'ati maqsad va vazifalarini aniqlashda;
- oliy ta'lim muassasalarida va diplomdan keyingi tibbiy ta'lim muassasalarida davlat o'quv me'yorlari, o'quv dasturlari, o'quv rejalari va tegishli yo'nalishlarda ishchi dasturlar ishlab chiqishda;
- xalq tabobati mutaxassisni faoliyatini baholash va nazorat qilib borishda.

### **1.5. Xalq tabobati kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari:**

Xalq tabobati mutaxassisi – tor doiradagi malakali mutaxassis hisoblanadi va aholining kasalliklarini tashhishlash, xalq va qo'shimcha tabobat usullari yordamida davolash yo'li orqali chora-tadbirlarini olib borish uchun etarli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Xalq tabobati mutaxassisi aholining sog'liqni saqlash sohasida o'z professional faoliyatini Sog'liqni Saqlash vazirligining tibbiy-profilaktika muassasalarining tegishli yo'nalish bo'g'inlarida olib boradi:

- Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, polikliika va klinikalar, shifomaskanlar ( sanator-kurort maskanlar), xususiy klinikalar;
- Oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar faoliyat yuritishi lozim bo'lgan sog'liqni saqlash tizimining tashkilot va muassasalarida;
- Sog'liqni saqlash tashkilotlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, oliy tibbiy ma'lumotga ega mutaxassislar egallashi mumkin lavozimlarda.

## 2. Xalq tabobati mutaxassis malaka tavsifnomasi

### 2.1. Xalq tabobati mutaxassis bilimi:

- turli kasalliklarni davolashda xalq tabobati usullarini qo'llash;
- "Ibn Sinoning tibbiy merosini";
- Sharq tabobati davolash usullarini va sharq tabobati falsafasini;
- Xalq va qo'shimcha tabobat va zamonaviy tibbiyotni integratsion uslublarini;
- dallilarga asoslangan xalq tabobati usullarini;
- sharq tabobati patologik sindromlarni;
- Xitoy, Koreya, Xindiston va boshqa xalq tabobati keng tarkalgan davlatlarda turli kasalliklarda qo'llaniladigan usullarini;
- normal va patologik holatlarda noa'naviy omillarning
- xususiyatlarini va ularning organizmga ta'sir qilish mexanizmini;
- kasallikning turli bosqichlarida xalq va qo'shimcha tabobati usullarini diagnostika, tashxislash va davolashda qo'llanilishini *bilishi va ulardan foydalana olishi*

### 2.2. Xalq tabobati mutaxassis ko'nikmasi:

- kasallik to'g'risida axborot qabul qilish, bemorni tekshirishni ob'ektiv usullarini qo'llash, bolalar va kattalarda kasallikning umumiy va o'ziga xos belgilarini aniqlash;
- maxsus tekshiruv usullarini belgilash (laborator, rentgenologik va funksional);
- differensial tashxislashni o'tkazish, klinik tashxisni asoslash;
- turli kasalliklarda fitoterapiya retseptlarni aniq va to'g'ri tavsiya berish va yozish;
- bemorga diagnostik usullarini o'tkazish va tashxis qo'yish;
- bemorga akupunktura muolajasini mustaqil o'tkazish;
- fizioterapevtik muolajalarni qo'llash;
- bemorlarga an'anaviy gimnastika usullarini rejalash, to'g'ri tavsiya qilish va mustaqil o'tkazish;
- manual terapiya usullarini tanlash va o'tkazish;
- dietoterapiyani qo'llash;
- bemorga reabilitatsiya dasturini individual ravishda tuzish;
- sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish;

### 2.3. Asosiy nazariy bilimlar

#### Xalq tabobati mutaxassisi bilishi kerak:

- O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'nalishlari);
- sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati;
- xalq tabobati yunalishidagi meyeriy va direktiv xujjatlarni;
- sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar;
- sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari;

- Ibn Sino tib qonunlarni va sharq tibbiyoti falsafasini;
- salomatlik va patologiya tushunchalarni va asoslarni;
- zamonaviy tibbiyotidagi diagnostik, tashxislash va profilaktika usullarni;
- sharq tibbiyoti va boshqa xalqlar tabobatini asoslarini;
- dalillarga asoslangan tibbiyot prinsiplari;
- turli patologik xolatlarda tizimlarni funksional va laborator tekshiruvlarni;
- stasionar, poliklinika, sanatoriy, shifomaskan va qayta tiklash reabilitatsion markazida ishni tashkil etish;
- sog'lom hayot turmush tarzini tashviqot qilishni;
- sog'lomlashtirish, profilaktika, sanitariya-gigiena tadbirlarini o'tkazishni haqida
- akupunktura, akupressura usullarida xavsizlik qoidalari;
- kasallikning turli bosqichlarida ignarefleksoterapiya, massaj va
- boshqa usullarini o'z vaqtida qo'llash va ularni bir biriga moslash;
- turli kasalliklarida sharq massajlarni texnikasi va usullari;
- turli kasalliklarida sharq jismoniy gimnastika asoslari va usullari;
- fitoterapiya asoslari, xususiyatlari, organizmga ta'sir
- mexanizmlari, ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar;
- xalq tabobatida diagnostika usullari;
- dietologiya va nutritsiologiya asoslarni va turli kasalliklarda qo'llanilishini;
- kineziologiya va osteopatiya asoslarini;
- manual terapiya asoslari;
- naturopatiya asoslarini;
- bemorni asosiy, yondosh kasalliklarini, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarini hisobga olgan holda, kasallikning aniq nozologik turlarida muolajalarning optimal majmuasini ishlab chiqishni;

### **3. Aholi salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda (profilaktikasida) xalq tabobati mutaxassisining urni.**

**Xalq tabobati mutaxassisi** faoliyatining asosiy yo'nalishi aholi sog'lig'ini saqlash, kasalliklarni oldini olish, erta tashhislash va davolash hisoblanadi.

#### **3.1. xalq tabobati mutaxassisining majburiyatlari:**

- aholining tibbiy ongini oshirish;
- sog'lom turmush tarzi targ'iboti;
- turli etiologiyali kasalliklar oldini olish chora tadbirlarini o'tkazish;
- turli etiologiyali kasalliklarining profilaktikasi masalalari bo'yicha maslahat olib borish;
- turli etiologiyali kasalliklardan keyingi asoratlarini profilaktikasi masalalari bo'yicha maslahat olib borish;
- turli kasalliklarni erta tashhislash chora tadbirlarini o'tkazish;
- turli kasalliklarni tashhislashni o'tkazish, ularni kechishini nazorat qilib borish;
- turli kasalliklarda shoshilinch yordam ko'rsatish;
- turli kasalliklarga chalingan bemorlarning dispanser ko'zatuvini olib borish;
- turli kasalliklarni davolashda xalq va qo'shimcha tabobati davolash usullarini va dori vositalarini oqilona qo'llanilishi nazorat qilib borish;



- turli kasalliklarda mexnatga layoqatlikni aniqlash komissiyasiga yo'llanma berish, engillashtirilgan sharoitdagi ish joyiga joylashtirish ko'rsatmalarini va sanator-kurot davoga ko'rsatmalarni aniqlash;
- aholi sog'ligi holatini tahlil qilish, hisobot tibbiy hujjatlarni yuritish;
- turli kasalliklarga chalingan bemorlar va nogironlar, qariyalar, yolg'iz insonlarga ijtimoiy muxofaza tashkilotlari va boshqa muassasalar bilan yordam ko'rsatish;
- xalq tabobati mutaxassisi o'z xuquq va majburiyatlari, shuningdek bemorlar xuquqini bilishi lozim.

#### **4. Sog'likni saqlash birlamchi tizimida ko'rsatiladigan tibbiy yordam xajmi.**

**4.1.** Ko'rsatiladigan (*tibbiy yordam turi*) darajasiga ko'ra xalq tabobati mutaxassisi tomonidan bajariladigan faoliyat:

- sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida aholi o'rtasida keng tarqalgan kasalliklar profilaktikasi, erta tashxisi, dastlabki tibbiy yordam, ratsional davolash, reabilitatsiya va dispanser kuzatuv.
- aholining tibbiy bilimini oshirish;
- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish (jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, ratsional ovqatlanish, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish va h.k.);

**4.2.** davolash profilaktika, diagnostika va (x.k.) tadbirlarini o'tkazilishi ko'zda tutilgan kasalliklar ro'yxati:

- Yurak qon-tomir kasalliklarini (arterial gipertenziya va stenokardiyada)
- Hazm tizimi kasalliklarini (oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklari, pankreatit, gastrit, xoletsistit va gepatitlar)
- Siydik ajratish tizimi kasalliklarini (pielonefrit, buyrak sanchig'i, sistit va sistalgiyalar)
- Endokrin kasalliklarda (semizlik va qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari)
- Markaziy va periferik asab kasalliklarini (serebral ateroskleroz, osteoxondroz, yuz nervi nevriti va uch shoxli nerv nevralgiyasi)
- Tayanch-harakat apparatining kasalliklarni (Bod kasalligi, revmatoid artritlar, Bexterev kasalligida, reaktiv artritlar)
- Teri kasalligi va allergik holatlarda (psoriaz, ekzema, dermatitlar polinoz, eshakemi, allergik toshmalar va b.)
- Ginekologik kasalliklarda (adneksit, endometrit, og'riqli xayz, bepushtlik) xalq va qo'shimcha tabobati usullari bilan davolashda kasallikning kechishi, davolashda sharq tibbiyoti nuqtai nazaridan tavsiyalar. SHarq tibbiyotida reproduktiv salomatligini tiqlash, saqlash va mustaxkamlash shakllari va vositalari.
- Bolalar kasalliklarda xalq va qo'shimcha tabobati usullari bilan davolashda kasallikning kechishi, davolashda sharq tibbiyoti nuqtai nazaridan tavsiyalar. Sharq tibbiyotida bolalar salomatligini tiqlash, saqlash va mustaxkamlash shakllari va vositalari.
- Otolaringologiya, oftalmologiya, travmatologiyada va umumiy jarrohlik kasalliklarida xalq va qo'shimcha tabobati usullari.

**Xalq tabobati mutaxassisining ega bo'lishi shart amaliy ko'nikmalar**  
**Xalq tabobati mutaxasis quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:**

- bemorga diagnostik usullarni o'tkazish va tashxis qo'yish;
- fizioterapevtik muolajalarni qo'llash va tashviqot qilish;
- turli massaj o'tkazish;
- akupunktura va boshqa xalq tabobati usullarni samaradorligini nazorat qilish.
- fitoterapiya retseptlarni aniq va to'g'ri tavsiya berish va yozish;
- fitoterapiya samaradorligini nazorat qilish;
- bemorlarga gimnastika usullarni rejalash va to'g'ri tavsiya qilish va mustaqil o'tkazish;
- manual terapiya usullarni tanlash va o'tkazish;
- bemorlarga parhez va ratsional dietoterapiya tanlash va tavsiya qilish;

**6. Xalq tabobati mutaxassisining munosabatlariga quyiladigan talablar**

Bemorlarga nisbatan xalq tabobati mutaxasisi tomonidan ko'rsatiladigan munosabat

- Shifokor deontologiyasi
- Shifokorlik sirini saqlash
- Bemor va uning oilasi uchun ma'lumotlarni taqdim etish va maslahat berish
- Surunkali kasalliklari bo'lgan bemorlarni dinamikada kuzatuvini olib borish
- Bemorlar va ijtimoiy himoyalangan guruxlarni parvarishlash bo'yicha nazoratni amalga oshirish
- Guruxli ishlash va mexnatni tashkil etish
- Boshqa muassasa xodimlari bilan xamkorlik
- Konsultantlarni jalb etish
- Zamonaviy tashhishlash va davolash usullarini o'rganib borish
- Hisobot va hujjatlarni to'g'ri yuritish
- Kasbiy ta'limni o'zluksiz olib borish
- Komputerdan ishlash, internet tarmog'iga kirish va ingliz tilini bilish
- Vaqt menedjment va mexnatni tashkil etishni tadbiq etish

**7. Uzlüksiz kasbiy ta'lim va xalq tabobati mutaxassisining attestatsiyasi**

Xalq tabobati mutaxasisi o'z kasbiy bilim ko'nikma va bilimlarini o'zluksiz mustaqil o'qish yuli bilan takomillashtirib borishi lozim. Xalq tabobati mutaxasisi shifokorlari oliy tibbiy o'quv muassasalarda, malaka oshirish sikllarida sertifikat va/yoki guvohnoma olib o'qishlari mumkin.

Xalq tabobati mutaxasisi sog'likni saqlash boshqarmalari yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tuman, viloyat, respublika bosqichlarida tashkil etilgan qisqa muddatli o'quv kurslari va seminarlarda qatnashib, ular yakunida sertifikat, attestat, guvohnomalar olib ishtirok etishi lozim.

Muhim shifokor hududi bo'yicha loyixa tuzib, uning natijalari davolash kengashida muhokama kilinadi.

Har bir xalq tabobati mutaxasisi aholi sog'ligini saqlash va tibiy yordam ko'rsatish borasidagi o'tkazilgan ishlar bo'yicha har yili hisobot taqdim etishga majbur.

Har 5 yilda xalq tabobati mutaxascisi va pedagog tegishli vazirlik tomonidan belgilangan xajm va davrda o'z malakasini tasdiqlash uchun malakaviy attestatsion imtihon topshirishga majbur.

**KELISHUV VARAG'I  
ISHLAB CHIQLDI:**



M.O'.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

rektori A.K.Shadmanov

2021 yil "06" 09

**KELISHILDI:**

Tibbiy ta'limni rivojlantirish  
markazi direktori

N.R.Yangiyeva

2021 yil "06" 09

M.O'.



Toshkent pediatriya instituti

rektori

B.T.Daminov

2021 yil "04" 09

M.O'.



Fan va ta'lim boshqarmasi

boshlig'i

A.T.Maxmudov

2021 yil "06" 09

M.O'.



Respublika Ilmiy amaliy

halq tabobati markazi direktori f.n.

A.Mirasimov

2021 yil "06" 09

M.O'.



Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini

rivojlantirish markazi Xalq tabobati kursi

rahbari, f.f.d., dotsent

N.O.Ergasheva

2021 yil "06" 09

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi KOICA

global shifokori PhD, professor

E.J. Song

2021 yil "06" 09

M.O'.

